



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th May 2026

Website: <https://econferencia.com>

KULOLCHILIKNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Umarov Xasanboy

Tasviriy va amaliy san'at kafedrası o'qituvchisi

Andijon davlat universiteti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada o'zbek xalq amaliy san'atining eng qadimiy turlaridan biri bo'lgan kulolchilikning tarixiy ildizlari, hududiy maktablarining o'ziga xos texnik xususiyatlari va bugungi kundagi rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida an'anaviy ishqorli sir tayyorlash texnologiyasi va loy tarkibini boyitish usullari ilmiy nuqtayi nazardan yoritilgan. Shuningdek, maqolada globallashuv sharoitida milliy kulolchilikning badiiy xususiyatlarini saqlab qolgan holda zamonaviy dizayn bilan integratsiyalashuvi masalalari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Kulolchilik, kulolchilik maktabi, ishqorli sir (ishqor), guldasta, terrakota, texnologik jarayon, xalq ustalari, badiiy transformatsiya, keramika, loy tarkibi.

Аннотация:

В данной статье анализируются исторические корни гончарного дела, одного из древнейших видов узбекского народного прикладного искусства, специфические технические характеристики его региональных школ и современные тенденции развития. В ходе исследования с научной точки зрения рассмотрены технология приготовления традиционной щелочной глазури и методы обогащения глиняного состава. В статье также исследуются вопросы интеграции национальной керамики с современным



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th May 2026

Website: <https://econferencia.com>

дизайном при сохранении ее художественных особенностей в условиях глобализации.

Ключевые слова: Гончарное дело, гончарная школа, щелочная глазурь (щелочь), букет, терракота, технологический процесс, народные мастера, художественная трансформация, керамика, глиняный состав.

Abstract:

This article analyzes the historical roots of pottery, one of the most ancient types of Uzbek folk applied art, the specific technical characteristics of its regional schools, and current development trends. During the study, the technology of preparing traditional alkaline glaze and methods of enriching the clay composition were covered from a scientific point of view. The article also studies the issues of integrating national pottery with modern design while preserving its artistic characteristics in the conditions of globalization.

Keywords: Pottery, pottery school, alkaline glaze (alkali), bouquet, terracotta, technological process, folk masters, artistic transformation, ceramics, clay composition.

Kulolchilik (keramika) ning paydo bo'lishi yangi tosh asrining muhim belgilaridan hisoblanib, ba'zan yangi tosh asrining keramika asri deb atalishi ham shundandir. Bronza asrida O'rta Osiyoda kulolchilik yanada rivojlandi. Kulolchilik dastgohlarining yuzaga kelishi esa, so'zsiz, yaratilgan buyumlarning yanada nafis va go'zal bo'lishini ta'minladi. Chustdan topilgan qizil fonga qora bo'yoqlar bilai rasm va naqshlar ishlangan sopol buyumlar diqqatga sazovordir. Miloddan avvalgi VI-IV asrlarga oid kulolchilik buyumlari shu davrning birmuncha ko'p faktik materialidir. O'rta Osiyo erlaridan topilgan ko'pgina sopol



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th May 2026

Website: <https://econferencia.com>

buyumlar kulolchilik dastgohlarida ishlangan, maxsus pechlarda pishirilgan. Ular shu asrlarda kulolchilik hunarmandchiligi yuksak bo'lganligidan dalolat beradi. Bular ichida geometrik ayniqsa diqqatga sazovordir. Miloddan avvalgi 250 yillarda Salavkiylar podsholidan ajralib chikqan Baqtriya keyinroq Hindiston yerlarining katta qismini o'ziga qaratib olib, miloddan avvalgi II asrgacha mavjud bo'ldi. Bu davlatga Milodiy asr boshlariga kelib, O'rta Osiyo iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida jiddiy jonlanish boshlandi. Undagi qator madaniy markazlarda san'at va madaniyat borasida muhim yodgorliklar yaratildi. Shunday madaniy markazlardan biri Xorazm viloyati edi.

Greklar podsholik qilgani uchun uning nomi Grek-Baqtriya deb yuritildi. Shu podsholikda grek san'ati ta'siri yaqqol seziladi. Amaliy san'atda ham Gretsiya san'atiga taqlid qilish yoki kulolchilik formalaridan o'z ijodlarida keng foydalandilar Gretsiya san'ati namunalaridan foydalanish keng avj oldi. Qo'yqirilgan qal'a, Gyaur qal'a, Tuproqqal'a xarobalari, u yerlardan topilgan tasviriy va amaliy san'at namunalari shu davrlarda (ilk feodalizm, ya'ni V asrga qadar) Xorazmda ijtimoiy hayotningbirmuncha intensiv bo'lganligini ko'rsatadi. Qo'yqirilgan qal'a (To'rtko'lning shimoli-sharqiy qismidan 22 km uzoqlikda) er.av. IV—III asr barpo etilgan bo'lib, u o'ziga xos kompozitsiyaga ega. U dastlab dumaloq shaklda bo'lib, uning markazida diametri 44,4 metrli ikki qavatli bino, undagi 14,5 metr mudofaa galereyasiga aylantirilib, tepa qismi ravoqli tom bilan bu yerdan topilgan kulolchilik buyumlari ham diqqatga sazovordir. Ular shakl jixatdan rang-barang. Sopoldan ishlangan suv idishlari, turli ko'zalar juda nafis qilib ishlangan. Bu ko'zalarni hayratga soluvchi bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan.

Kulolchilik buyumlaridan kundalik turmushda keng foydalanishi natijasida ularning turlari va foydalanish joylariga ham mos ravishda ishlab chiqarila boshlandi.



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th May 2026

Website: <https://econferencia.com>

Xum. Arxeolog Yu. Yoqubovning yozishicha hajmi jihatdan uch turga bo'lganlar. Masalan, xum, nimxum (yarim kattalikdagi xum), xumcha (kichik xajmdagi xum). Katta xumlarda bug'doy, suv, vino ham saqlangan. Vino saqlanadigan xum ikki marta pishirilgan. Bir marta shundayligicha, ikkinchi marta sirlab pishirilgan. Ularni yerga ko'mib, og'zini mahkam yopib tashlashgan. Ko'zalar tuzilishi asrlar davomida o'zgarishsiz saqlanib kelgan.

Sut-qatiq ko'zachelari. Tog' hududlarida chorvachilik rivojlanganligi sababli sut, qaymoq, qatiq, yog' saqlash pastqamroq, qorni keng, bo'yni uzun, bir yoki ikki dastali ro'zg'orga ajratilgan yog'ni saqlash uchun krujkaga o'xshash dastali kichkina idishlar ham yasalgan.

Suv tashish ko'zalari. Safarga otlangan kishilarga mo'ljallangan ko'zalar bir tomoni tekis, ikkinchi tomoni yo'lovchi beliga yon tomonga osib qo'yilgan. Uning og'zi kichkina, ikkita dastasi bo'lgan. Ko'zalar tuzilishi asrlar davomida o'zgarmagan. Shunday tuzilishdagi ko'zacha IV-I asrlarda Xorazmda, III-IV asrlarda Chirchiq va Bo'zsuv kanallari oralig'ida, VII-VIII asrlarda varaxshada, IX-X asrlarda Paykanda bo'lganligi arxeologlar tomonidan tasdiqlangan.

Ichimlik saqlanadigan idishlar. Dasturxonga ichimlik qo'yish uchun o'rdakka o'xshash formadagi idishlar qo'yilgan. Mazkur ko'rinishdagi ko'zaga qadim zamonlarda ko'proq sharob quyilgan. Uning funksional jihatdan qulay bo'lganligi bois XX asrlar boshlarigacha o'zgarmasdan kelgan. Jumladan, VII-VIII asrlarga doir o'rdaksimon idish- Munchoqtepa makonidan, X asrga doir shunday idish Qal'ai Qahqahadan, X-XII asrlarga doir o'rdaksimon idish Samarqanddan topilgan.

VIII-XII asrlarda kulolchilik O'rta Osiyoda yaxshi rivojlangan. Buni Afrosiyobda vaboshqa yerlardan topilgan kulolchilik buyumlari isbotlab berdi. O'sha davrda O'rta Osiyo madaniyati tez sur'atlar bilan rivojlandi. Yangi ko'tarilish davri bo'ldi. Amaliy san'at buyumlari uzunchoq tuzilishda (ko'za va



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th May 2026

Website: <https://econferencia.com>

ko'zasimon idishlar) bo'lsa, syujet personajlari xuddi xona devorlaridagidek bir chiziqda tasvirlangan. Ayrim hollarda personaj tasvirining bir qismi dasta yuzasiga ham o'tib ketgan. Shuningdek, buyum yuzasidagi personaj kichik bo'lsa, uning atrofi xuddi ramkaga olingandek geometrik yoki o'simliksimon naqshlar bilan o'ralgan. Shunday kompozitsiyani Munchoqtepadan topilgan XI-XII asrlarga oid siyohdon yuzasida ko'ramiz. Boshqa siyohdonda esa odam tasviri ravoq ichiga olingan.

Ko'zalar bo'yni qorin qismida ko'pincha to'q rangli to'g'ri, to'lqinsimon chiziqlar bilan ajratilgan. Marvdagi ko'zacha bo'yni pastki qismida yuqori tomoni ritmik tizimda qaytarilgan burama-burama kungurali chiziq bilan aylantirilgan. Tog'larda esa ko'za qorinchasining yuqori qismi bir yoki ikki qator qavariqli chiziqlar bilan belgilangan. Mazkur jimjimador naqsh xuddi kiyim yoqasini eslatadi.

Katta xumlarning bo'yin va qorin qismlari ham zanjira, to'lqinsimon chiziq va ayol bo'yniga osilgan taqinchoq kompozitsiyasiga o'xshash naqshlar bilan ajratilgan. Bunga Xarajket xarobalaridan topilgan o'rta asrlarga oid xum ham guvoxlik beradi. Xum yelkasiga ishlangan naqsh ko'proq ayollar bo'yniga taqadigan ko'p figurali taqinchoqni eslatadi. Mazkur vertikal tuzilishdagi xum qismlari gorizontal kompozitsiyada ishlangan taqinchoq shaklidagi bezak bilan badiiy jihatdan bog'lab yuborilgan. Bu borada shuni ham aytish kerakki, katta xumlarning hamma qismini naqsh bilan to'ldirishga xojat bo'lmagan. Uning ko'rinarli joyida, ko'proq qorin qismida bironta naqsh ishlansa, bas. Shuning o'ziyoq xum kompozitsiyasini jonlantirib yuborgan.

IX-X asrlarda amaliy dekorativ san'at ham yuksak bo'lgan. O'rta Osiyoning ko'pgina yerlarida kulolchilik ustaxonalari bo'lgan. Bu davrda kulolchilik ham mashhur bo'lgan. Ko'p hollarda oq fonga bo'yalgan sopol buyum yuzalariga qora qizg'ish -jigarrang bo'yoqlarda tasvirlar tushirilgan. XIII asrda mo'g'ullar



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th May 2026

Website: <https://econferencia.com>

bosqinchiligi oqibatida Buxoro, Samarqand, Urganch, Mavr, Balx yong'in ostida qoladi. Oqibatda kulolchilik san'ati rivojiga putur ketdi. XIV asrdan boshlab Temur xalq amaliy san'atini rivojlantirishda juda katta xizmat qildi. Bosib olingan joylardan ustalarni olib kelib ular uchun rastalar ochtirdi. Mashhur, go'zal, nafis binolar, qasrlar, saroylar qurdirdi. Amir Temur vafotidan so'ng o'zaro ichki janglar oqibatida Temuriylar xonligida markazlashgan xonlik kuchsizlanib ketdi. Natijada Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari paydo bo'ldi. O'rta Osiyoda bir necha feodal davlatning bunday ajralishi natijasida o'zaro aloqa yerlarda turlicha rivojlandi. XIX asrga kelib kulolchilik mamlakatlari bo'lgani uchun sopol idishlarni tez sur'atlar bilan ishlab chiqarishga bordi. Ustalar turli-tuman kulolchilik buyumlarini yasashdan tashqari ularni yuksak did bilan bezay boshladilar .

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib kulolchilik markazlari paydo bo'ldi. Sopol buyumlarni sirlab bezashning o'ziga xos uslublari vujudga keldi. XX asrda boshlaridan bugungi kunlarimizgacha Xorazmda Ko'hna Urganch (marxum Eshmurot usta), Xiva, Madir (Xonka yaqinidagi qishloq) va Kattabog' (Yangiariq) kulollar maktabi foaliyat ko'rsatmokda. Xorazmda bu qadimiy san'at avloddan – avlodga an'ana tariqasida o'tib kelgan va xozirgi kunda ham rivojlanib takomillashib kelmokda. XIX asrda arzon baho chinni ishlab chiqarilishi va Rossiyadan chinni ishlarni ko'plab olib keltirilishi O'rta Osiyo territoriyasida sopol buyumlar ishlashni birmuncha pasaytirib yubordi.⁷ Lekin arzon sopol idishlarni me'morchilikda keng foydalanilishi kulolchilikning rivojlanishiga to'sqinlik qila olmadi. XIX asrda O'rta Osiyoda tojik va o'zbek xalqlari o'rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib G'ijduvon, Panjikent, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent, Rishtonda kulolchilik markazlari paydo bo'ladi.



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th May 2026

Website: <https://econferencia.com>

Ular sopol ishlarini sirlab bezatishning o'ziga xos uslublarini vujudga maxsulotlarining sifatliiligi, chiroyliligi, naqshlarining nafis va ta'sirchanligi bilan shuxrat qozondilar.

Barcha davrlarda kulolchilik san'ati bosqichma-bosqich rivojlanib bordi. Hunarmandchilik manzillari, keyinchalik kulolchilik bilan shug'ullanuvchi kichik-kichik hududlarga ajradi. Kulolchilikning ma'lum bir qismi bilan shug'ullanuvchi kulollar ham keyinchalik ajralib, kulolchilikning aynan shu turi bilan mashg'ul bo'ldilar. Kulolchilik san'atining rivojlanishida quyidagi davrlar bosqichida rivojlandi:

- Shaharlarda kulolchilik buyumlari yasash uchun qadimdan oyoq bilan harakatga keltiriladigan charx qo'llanilishi;
- IX asrlardan boshlab ustaxonalarda buyum ishlab chiqarishning turli egalariga taqsimlanishi (gilkor, naqqosh, kulol);
- IX-XX asrlardan boshlab ko'p miqdorda buyum ishlab chiqarish uchun qolipdan foydalanishni yo'lga qo'yish.
- IX-XI asrlardan boshlab spool buyumlarni yuzasini yaxlit tasvirlar kompozitsiyasi bilan to'ldirish;
- IX-X asrlarda buyumlar yuzasiga chiroyli husnihatdagi yozuv kiritilishi;
- IX asrdan boshlab buyumlarni sirlash uchun tabiiy o'simliklardan sifatli ishqor tayyorlashni yo'lga qo'yish;
- IX-XII asrlarda buyumlar funksional qulayligiga e'tiborning kuchayishi;
- Ommaviy mahsulot ishlab chiqarishda xalq, davr sinovidan o'tgan muayyan spool buyum shakllarining andoza sifatida qo'llanilishi;
- X-XI asrlarda Movaraunnahrda bosma naqshning qo'llanilishi;
- XII asrda Marvda sopol buyumlarining qolipda ishlanilishi;
- XIV-XV asrlarda kulolchilik san'atini tiriltirish va yuqori cho'qqiga chiqarish;



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th May 2026

Website: <https://econferencia.com>

- XIV asrda kulolchilikda koshin ishlatilishi;
- XIV asrda oq yuzada ravshan ko'k rangda naqsh ishlanilishi;
- XIX asr o'rtalarida Rishton kulolchilik maktabida burilish yasalishi (sopol buyumlarni chinniga o'xshatib ishlash).

Sopol buyumlari shunchaki ro'zg'or buyumi sifatida qaralgan bo'lsa, insoniyatda estetik did rivojlanishi bilan buyumlarning san'at darajasiga sifatida qaralib kelinmoqda. Sopol buyumlarning ishlab chiqarish texnologiyasiga, ularga berilayotgan bezak turlariga qarab ko'plab respublikamizda shu san'atning maktablari faoliyat yuritmoqda. Bu maktablarning o'z yo'liga ega bo'lgan ustazoda kulollar maktabi ham shu san'at turini yanada rivojlanishiga xissa qo'shmoqda. Mana shunday maktablar sarasiga kiradigan Andijon maktabi ham o'zining o'rni va o'ziga xos rivojlanish tarixiga egadir.

Foydalangan adabiyotlar

1. С.Булатов. “Халқ таълими” журнали. Т.; 1998, 1-сон
2. Y.Rahimova. Kosonsoy tarixidan lavhalar. Т.; 1996 y.
3. Y.Qosimov.Qadimgi Farg'ona sirlari. N.; 1992
4. Ўзбекистон санъати. Энциклопедия. Т.; 2001
5. R. Shamsutdinova “Vodiynoma” jurnali 2-son
6. R. Shamsutdinova “Vodiynoma” jurnali 3-son
7. Akbar Hakimov, Surayyo Aliyeva “San'at” 3-son 2012 yil jurnali “O'zbekiston kulolchiligi majozlari” maqolaisdan
8. Saida Ilyosova arxeolog “Farg'onaning XI-XII asrlarga oid sirlangan idishlari” “San'at” 3-son 2013 yil jurnali